

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasida xarakter yaratish masalasi adabiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotda xarakter tushunchasi qahramonning tashqi ko‘rinishi bilangina emas, balki uning dunyoqarashi, ruhiy holati, hayotiy tajribasi, jamiyat va insonlar bilan munosabati, ma’naviy qarashlari orqali namoyon bo‘luvchi murakkab badiiy hodisa hisoblanadi. Yozuvchi qahramon xarakterini yaratishda uning xatti-harakatlari, nutqi, ichki kechinmalari va turli hayotiy vaziyatlardagi tanlovlariga e’tibor qaratadi. Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasida ham inson xakteri hayot sinovlari, oilaviy munosabatlar va tarixiy davr voqealari fonida ochib beriladi. Asarning markaziy obrazi Zulfizar xakteri orqali kuchli iroda, mustaqillik, g‘urur, mehribonlik va ichki ziddiyatlar aks ettirilgan. Shuningdek, Oysulton xola, Ulton kampir, Sora va Og‘amurod obrazlari orqali turli xakter tiplarining badiiy talqini yaratilgan.

Kalit so‘zlar: xakter, badiiy obraz, psixologizm, qahramon, ruhiyat, Zulfizar, ona obrazi, ayol xakteri.

THE QUESTION OF CHARACTER IN JAMILA ERGASHEVA’S NARRATORY “ZULFIZAR”

Abstract: This article analyzes the issue of character creation in Jamila Ergasheva’s novella “Zulfizar” from the perspective of literary theory. In fiction, the concept of character is a complex artistic phenomenon manifested not only through the character's appearance but also through their worldview, mental state, life experience, relationships with society and people, and spiritual views. In creating the character, the writer focuses on his actions, speech, inner experiences, and choices in various life situations. In Jamila Ergasheva’s story “Zulfizar”, human character is also revealed against the backdrop of life's trials, family relationships, and the events of a historical period. The central image of the work reflects strong will, independence, pride, kindness, and internal conflicts through the character of Zulfizar. Furthermore, an artistic interpretation of various character types was created through the images of Aysultan-khola, Ulton-kampir, Sora, and Ogamurod.

Keywords: character, artistic image, psychologism, hero, psyche, Zulfizar, mother's image, female character.

Аннотация: В данной статье вопрос создания характера в повести Джамилы Эргашевой “Зульфизар” анализируется с точки зрения теории литературы. В художественной литературе понятие характера является сложным художественным явлением, проявляющимся не только внешним видом героя, но и его мировоззрением, психическим состоянием, жизненным опытом, отношением к обществу и людям, духовными взглядами. При создании характера героя писатель обращает внимание на его действия, речь, внутренние переживания и выбор в различных жизненных ситуациях. В повести Джамилы Эргашевой “Зульфизар” также раскрывается характер человека на фоне жизненных испытаний, семейных отношений и событий исторического периода. Центральный образ произведения через характер Зульфизар отражает сильную волю, независимость, гордость, доброту и внутренние противоречия. Также создана художественная интерпретация различных типов характеров через образы тётки Айсултан, старухи Ултон, Сары и Агамурада.

Ключевые слова: характер, художественный образ, психологизм, герой, психика, Зульфизар, образ матери, женский характер.

Adabiyotshunoslik nazariyasida xarakter badiiy obraz yaratishning asosiy vositalaridan biridir. Obraz tushunchasi keng bo‘lib, u inson, tabiat yoki hodisaning badiiy ifodasini bildirsa, xarakter ana shu obrazning o‘ziga xos ichki va tashqi belgilarini ifodalaydi. Xarakter qahramonning hayotga munosabati, ma’naviy qiyofasi, ruhiy olami va ijtimoiy muhit bilan aloqasi orqali shakllanadi. Badiiy asarda xarakter voqealar jarayonida ochiladi. Qahramonning oddiy holatdagi emas, balki murakkab vaziyatlardagi harakati uning asl mohiyatini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasi inson xarakterining shakllanishi va namoyon bo‘lishini chuqur tasvirlagan asarlardan biridir.

Qissaning bosh qahramoni Zulfizar murakkab va ko‘p qirrali xarakterga ega. Muallif uni faqat bir jihatdan emas, balki butun hayot yo‘li, ruhiy kechinmalari va qarorlari orqali ochib beradi. Zulfizar xarakterining asosiy belgilaridan biri mustaqillik va qat’iyatdir. U yoshligidan hayot qiyinchiliklari bilan yuzlashadi. Urush yillari, yaqin insonlarini kutish, oilaviy mas’uliyatlar uni erta ulg‘aytiradi. U taqdirga oddiy bo‘ysunuvchi emas, balki o‘z yo‘lini tanlashga intiluvchi ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Buni uning Jo‘ra muallim bilan bog‘liq voqealarida ham ko‘rish mumkin. Jo‘ra muallim urushdan qaytgan, ruhiy jarohatlar olgan, Zulfizarni chin dildan sevgan inson edi. Ammo Zulfizar unga achinish yoki rahm asosida turmush qurishni istamaydi. U Jo‘ra muallimni inson sifatida hurmat qilsa-da, uni o‘ziga munosib deb bilmaydi. Bu holat qahramonning o‘z qarashlariga sodiqligi va g‘ururli xarakterini ko‘rsatadi.

Zulfizar xarakterida mehr va mas’uliyat ham kuchli namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qizi Sora taqdiri bilan bog‘liq voqealarda uning ona sifatidagi qiyofasi ochiladi. G‘anisher oilani

tark etmoqchi bo'lganida, Zulfizar o'z dardidan ko'ra qizining va nevaralarining kelajagini o'ylaydi. U kuyoviga ham ona sifatida murojaat qilib, oilani saqlab qolishga chaqiradi. Shu bilan birga, Zulfizar xarakterida ichki ziddiyat ham mavjud. U kuchli ayol bo'lsa-da, qalbida og'riqlar, armonlar va o'tgan hayot xotiralari yashaydi. Uning kuchliligi hissizligidan emas, balki ko'p sinovlarni boshdan kechirganidan kelib chiqadi.

Oysulton xola obrazi qissada sabrli, mehribon va fidoyi ona timsoli sifatida gavdalanadi. U hayot davomida ko'plab yo'qotishlarni boshdan kechiradi, ammo farzandlari uchun yashashga harakat qiladi. Oysulton xolaning xarakterida ona mehri va farzandga bog'liqlik kuchli. Zulfizar o'qishga ketmoqchi bo'lganida, onasi bunga qarshi chiqadi. Bu uning farzandining kelajagini inkor qilgani uchun emas, balki uni uzoqqa yuborishga yuragi chidamagani sababli yuz beradi. Asar oxirida Oysulton xola haqida qishloq odamlarining “mo'min ayol”, “mehribon ayol” degan fikrlari uning butun hayotiy xarakterini ifodalaydi.

Ulton kampir obrazi qissadagi eng murakkab xarakterlardan biridir. U hayotning og'ir zarbalarini ko'rgan, dard va yo'qotishlar ichida yashagan ayol sifatida tasvirlanadi. Urush yillari uning ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. O'g'illari urushda, oilasi tashvishda qolgan paytda u ichki kuch bilan yashashga majbur bo'ladi. Zulfizarning ayrim qarorlariga keskin munosabat bildirishi ham uning hayot tajribasi va eski qarashlari bilan bog'liq. Ulton kampir xarakterida qattiqqo'llik bilan birga chuqur mehr ham mavjud. U Zulfizarga ba'zan qattiq gapirsa-da, aslida uning taqdiri uchun qayg'uradi.

Asarda Zulfizarning qizi Sora obrazi yangi avlod vakili sifatida tasvirlanadi. U onasi Zulfizardan farqli ravishda boshqa muhitda ulg'aygan, imkoniyatlari kengroq bo'lgan ayol obrazidir. Sora aqlli, bilimli va faol inson sifatida ko'rsatiladi. Biroq uning xarakterida erkalik va o'ziga ishonganlik ham mavjud. Zulfizar qizining hayotiga qarar ekan, uning ayrim jihatlarini o'z xakteri bilan solishtiradi. Sora obrazi orqali muallif avlodlar o'rtasidagi farqni, tarbiya va hayot tajribasining inson xakteriga ta'sirini ko'rsatadi.

Og'amurod obrazi “Zulfizar” qissasidagi murakkab va fojeiy xakterlardan biridir. U asarda haqiqatparast, adolatni qadrlaydigan, o'z fikriga ega inson sifatida namoyon bo'ladi, atrofidagi muammolarni ko'rib jim turishni, nohaqlikka ko'z yumishni istamaydi. Og'amurodning xakteri ayniqsa uning ustozlari bilan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. U ustozlarini hurmat qilgan bo'lsa-da, ularning xatosi yoki noto'g'ri qarorlariga qarshi chiqishdan qo'rqmaydi. Bu holat uning tarbiyaga va kattalarga hurmatsizligi emas, aksincha, haqiqat va adolatni ustun qo'yganidan dalolat beradi. Og'amurodning eng muhim xakter xususiyati jasoratidir. Ko'pchilik sukut saqlagan vaziyatda u o'z fikrini ochiq aytadi. Biroq jamiyatda haqiqatni aytadigan insonlar ko'pincha qarshilikka duch keladi. Og'amurod ham o'zining to'g'riso'zligi va adolat talab qilishi sababli og'ir taqdirga duch keladi. Zulfizar xakteri bilan solishtirilganda, Og'amurod ham ichki kuchga ega inson sifatida ko'rinadi. Agar Zulfizar hayot sinovlariga sabr va iroda bilan qarshi tursa, Og'amurod haqiqat va adolat uchun kurashish yo'lini tanlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasida xakter masalasi asarning asosiy badiiy markazini tashkil qiladi. Muallif qahramonlarni faqat voqealar

5-Iyul, 2026-yil

ishtirokchisi sifatida emas, balki o‘z ruhiy olami, qarashlari va ichki ziddiyatlariga ega inson sifatida yaratadi. Zulfizar obrazi qissaning eng murakkab va mukammal xarakteridir. U kuchli iroda, g‘urur, mustaqillik va mehribonlikni o‘zida birlashtirgan. Uning xarakteri hayot davomida shakllangan: urush, yo‘qotishlar, oilaviy sinovlar va farzand tashvishi uni chiniqtirgan. Zulfizar obrazi orqali yozuvchi ayol qalbining kuchi va murakkabligini ochib beradi. Oysulton xola obrazi ona mehrining, Ulton kampir obrazi esa sabr va hayot tajribasining timsolidir. Sora obrazi yangi avlod xarakterini ifodalasa, Og‘amurod obrazi ana shu davrda yashagan, haqso‘zni aytib qurbon bo‘lgan insonlar timisolini yoritishga xizmat qiladi. “Zulfizar” qissasida xarakter yaratish jarayoni psixologik tahlil, hayotiy ziddiyatlar va obrazlarning o‘zaro munosabati orqali amalga oshirilgan. Asar inson xarakterining shakllanishi va uning hayot oldidagi tanlovlarini chuqur badiiy tadqiq etgani bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ergasheva J. Zulfizar: qissa. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. O‘zbek adabiyoti va san’ati jurnali. – Toshkent, 2005–2020-yillar (Ergasheva ijodiga oid maqolalar).
3. Sharq yulduzi jurnali. – Toshkent, turli sonlar (zamonaviy o‘zbek nasri va muallif ijodi haqidagi maqolalar).
4. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti (ilmiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: Fan, 2015.
5. Zamonaviy o‘zbek yozuvchilari (biobibliografik ma’lumotnoma). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2018.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2000–2005 (tegishli jildlar).
7. Ziyonet.uz portali
8. Kitob.uz elektron kutubxonasi